

UDK: 632. 98. 77. 51.

BUG'DOY AGROBIOTSENOZIDA SO'RUVCHI ZARARKUNANDALAR TURLARINING RIVOJLANISHI

Bauetdinov Baxtiyar Otebaevich

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Annotatsiya. Maqolaga bug'doy agrobiotsenozida uchraydigan so'ruvchi zararkunandalarning rivojlanish bioekologiyasi, dominant turlarining keltiradigan zarariga biotop omillari ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi kiritilgan. Tarqalgan areallari bo'yicha asosiy tur hisoblangan bug'doy shirasi, zararli xasva va bug'doy tripsining keltiradigan zarari aniqlanib, rivojlanish dinamikasi belgilandi.

Kalit so'zlar: shira, zararli xasva, bug'doy tripsi, so'ruvchi, areal, dinamikasi, zarar mezon, hosilning kamayishi.

Резюме. В статье приведены результаты исследования по определению влияния факторы биотопа биоэкологии развития и вредоносности доминантным видов сосущих вредителей в агробиоценозе пшеницы Каракалпакстана. Определены вредоносность, динамика развития как основных видов вредителя пшеничная тля, вредная черепашка и пшеничный трип.

Ключевые слова: тля, вредная черепашка, сосущие, ареал, динамика вредоносность, снижения урожая.

Kirish. Bug'doy navlari hosildorligi past bo'lishidagi asosiy sabablaridan biri, so'ngi yillarda biotsenozning abiotik va biotik omillari elementlarining yangi mezonlarining shakllanishidir. Jumladan, ayirim zararkunandalar turlari so'ngi yillari paydo bo'lib, o'simlikning o'sib, rivojlanishiga katta zarar keltirib, hosilni kamaytirishiga olib kelmoqda. Bug'doy biotopida zararkunanda turlari ko'plab tarqalishi va zarar etkazishi, ushbu biotopdagi omillarning paydo bo'lishiga, biologik organizmlarning bir-biriga mos rivojlanish sharoitiga bog'liq bo'lishi isbotlangan. Ekilayotgan bug'doy ekinlari dalalarida keng tarqalib rivojlanayotgan zararkunandalarning rivojlanish bioekologiyasi, keltiradigan zarari o'rganilgan holda uyg'unlashgan kurash tadbirlarini qo'llashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish katta amaliy ahamiyatga ega va tez echimini kutib turgan dolzarb muammo hisoblanadi.

Tajriba ob'ekti va usullari. Asosiy ob'ekt Chimboy, Kegeyli va Nukus tumanlarida ekilgan kuzgi bug'doy va dalalarda uchragan so'ruvchi zararkunandalar. Bug'doy ekilgan dalalarda hudud agroiklim va tuprog'iga xos tavsiya etilgan agrotexnik tadbirlar qo'llanildi. Dalada tarqalgan zararkunanda turlari, tarqalish dinamikasi B.P.Adashkeevich (1983) [1], Sh.T. Xodjaev v.b. (2004) [4], zararkunandalarning hosilga keltiradigan zarari V.I.Tanskiyning (1988) [3], tajribalarni qo'yish va statistik tahlil qilish B.A. Dospexov (1986) [2] usullari asosida tashkillashtirildi.

Tadqiqot natijalari. Mazkur agrobiotsenoz bug'doy dalasida paydo bo'ladigan mikroiklim sharoiti erta bahordan hosil pishgunga qadar, biotopda hasharotlarning ko'payishida maqbul bo'lishi kuzatildi. Natijada dalaga tashqaridan ko'plagan hasharotlar turlari migratsiya qilishga sabab bo'ldi. Biotopga migratsiya qiladigan turlari orasida bug'doyning ixtisoslashgan zararkunandalari turlarining rivojlanish xususiyatlari birmuncha nazariy va amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar olindi. Chunki, asosiy turlari erta bahordan boshlab dalaga to'planadigan bo'lsa, iyun oyiga borib, bug'doy pishib etilishi bilan tinim fazasiga kirishga majbur bo'ladi. Ushbu noqulay biotik va abiotik omillar ta'siriga bardosh berish va kuz oylarigacha qishlov joyiga to'planishi bo'yicha rivojlanish dinamikasidagi omillarni hisobga olish talab etiladi.

Mazkur turlarning tarqalgan areallari, keltiradigan zarar mezonlari bo'yicha dominant turlarining rivojlanish dinamikasini aniqlash, qishlov joyidan chiqib, bug'doy dalasiga to'planishi va yoz, kuz oyida qishlov joyiga etib borish davrlarida qarshi kurash tadbirlarini olib borishni taqozo etadi. Bundan tashqari mazkur turlarning bug'doy dalasida bevosita rivojlanish dinamikasini aniqlash qarshi kurash tadbirlarini maqbul sharoitda olib borishga maqbul muddatini belgilab boradi. Mazkur sharoit bug'doy biotopida rivojlanadigan zararkunandalarning dominant turlari hisoblangan bug'doy tripsi, bug'doy shirasi va zararli xasvaning rivojlanish dinamikasi o'rganib borildi.

Natija shuni taqozo etadiki, bug'doy dalalarida tarqalgan zararkunandalardan, moslashgan turlari hisoblangan bug'doy tripsi, bug'doy shirasi va zararli xasva turlarining rivojlanish dinamikasida ularning o'ziga xos bo'lgan rivojlanish xususiyatlari mavjud ekanligi isbotlandi. Chunki, kuzatuvlar olib borilgan tumanlar bug'doyzorlarida havo harorati o'rtacha 10,3-12,8°S ga ko'tarilgan yillarda aprel oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab bug'doy tripsi va uchinchi o'n kunligida bug'doy shirasi va zararli xasva turlarining qishlab chiqqan avlodlari (etuk zotlari) hisobga olinib, rivojlanishni boshlaydiganligi aniqlandi.

Bug'doy shirasi esa may oyining ikkinchi o'n kunligida maksimal darajada rivojlangan bo'lsa, dalada iyun oyining ikkinchi o'n kunligiga qadar ko'payib borganligi hisobga olindi.

Zararli xasvaning rivojlanishi may oyining ikkinchi o'n kunligidan faollashib, ayrim dalalarda hosil pishgan muddat hisoblangan iyun oyi oxirigacha davom etib, ma'lum soni sentyabr oyida qishlovga ketganligi aniqlandi.

Bug'doy dalasida uchragan soni bo'yicha bug'doy shirasi ko'proq, bug'doy tripsi kamroq va zararli xasva biroz kam sonda bo'lganligi qayd etilgan. Bundan ma'lum bo'ldiki, tumanlar sharoiti va olib borilayotgan agrotexnik tadbirlar, dalaning joylashishiga bog'liq zararkunandalar soni, rivojlanish dinamikasi har xil bo'lganligi qayd etildi.

Mazkur agroiklim sharoiti aprel oyining uchinchi o'n kunligida bug'doy dalasida zararli xasva, trips va shiralar uchragan bo'lsa, tarqalgan areallari bo'yicha Nukus tumani bug'doyzorlarida zararkunandalar faol rivojlangan.

Zararkunandalardan bug'doy tripsi asosan may oyida yoppasiga ko'payib ikkinchi o'n kunlikda nazoratga olingan 100 ta o'simlikda 46,2-48,1 dona, uchinchi o'n kunlikda 127,4-165,2 donaga etib, soni iyun oyida biroz kamroq. Mazkur tur

Nukus tumani bug'doy dalalarida ko'proq, Chimboy tumanda biroz kam darajada rivojlanganligi hisobga olindi.

Bug'doy zararkunandalaridan zararli xasva turining rivojlanish dinamikasi faol va keltiradigan zarar mezoni katta bo'lganligi qayd etilgan. Zararkunandaning qishlab chiqqan etuk zoti aprel oyi uchinchi o'n kunligida bug'doy dalasiga kelib rivojlanishni boshlab tez ko'payish biologik xususiyatiga ega tur. Natijada 100 ta o'simlikda 1,4-3,0 donagacha topilgan zararkunanda to'plash va nay chiqarish fazalarida qo'shimcha oziqlanishni boshlaganligi ma'lum bo'ldi. Zararli xasvaning dala ichiga tarqalishi may oyining birinchi va ikkinchi o'n kunliklarida kuzatilib, yoppasiga tuxum qo'yilgan maydonlar soni ko'paydi.

Zararkunandalar tarqalgan soni, areallari bo'yicha yillar va tumanlar kesimida bir-biridan farq qiladi. Chunki Nukus tumani bug'doy biotoplarida zararkunanda ko'proq tarqalgan bo'lsa, Chimboyda o'rta darajada, Kegeylida esa boshqa tumanlarga nisbatan kam ekanligi hisobga olindi. Buning asosiy sababi tumanlarda zararkunandaga qarshi olib borilgan kurash tadbirlarining samaradorligiga bog'liq ekanligi isbotlandi.

Kuzatuvlar natijasida bug'doy dalasida rivojlanayotgan zararkunandalar soni iyun oyi ikkinchi o'n kunligidan boshlab pasayishi, uchinchi o'n kunligida minimal darajaga tushib ketishi, bug'doyning pishib etilishi bilan bog'liq ekanligini isbotlaydi.

Olib borilgan kuzatuvlar natijasi tahlili bug'doy biotopda ko'paygan bug'doy tripsi iyun oyining ikkinchi, bug'doy shirasi birinchi, zararli xasva esa uchinchi o'n kunligida yozgi tinim holiga kirishi qayd etilganligi aniqlandi.

Xulosa: Qoraqalpog'iston agroiklim sharoitida ekilayotgan bug'doy dalasida tarqalib zarar keltiradigan bug'doy tripsi va zararli xasva rivojlanish bioekologiyasida abiotik va biotik omillarining asosiy elementlari ijobiy ta'sir etishi isbotlandi. Mazkur agroiklim sharoitida bug'doy tripsi urg'ochi zoti may oyida 24,9 dona tuxum qo'yib, 90-95% lichinkalari chiqib, 1 ta o'simlikda 1,0-2,6 dona etuk zoti bo'lganda 8,8-10,9 dona tuxumni bitta o'simlikka qo'yishi va 17,4-28,9 dona lichinkalari rivojlanishi hisobga olindi.

Aprel oxiri may oyida rivojlangan zararli xasva 60,2 dona tuxum qo'yib 46,1 donasidan lichinkalar chiqib, 34,5 dona etuk zoti paydo bo'lishi hisobga olingan bo'lsa 1 m² ko'paygan 1,0-2,1 dona urg'ochi zoti 10,5-12,2 dona tuxum qo'yib 6,9-9,5 dona lichinka rivojlanib, iyun oyining uchinchi o'n kunligida qishlovga ketadigan etuk zoti soni 2,5 donaga etishi isbotlandi. Bug'doyning asosiy zararkunandalari aprel oyining uchinchi o'n kunligidan boshlab dalada paydo bo'lib may oyining oxirigacha bug'doy tripsi soni 165,2 donaga, bug'doy shirasi 216,7 donaga, zararli xasva 35,6 donaga ko'payadiganligi, mazkur turlarga qarshi kurash tadbirlarini maqbul sharoitda tashkillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Adashkeevich B.P. Biologicheskaya zashchita krestotsvetnykh ovochnykh kultur ot vrednykh nasekomykh.-Tashkent "FAN",1983. -188 s.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta.-M.: Kolos, 1986.- 415 s.
3. Tanskiy V.I. Biologicheskaya osnova vreditel'nosti nasekomykh. - M..

«Agropromizdat», 1988.-S 182-198.

4. Xodjaev Sh.T. va b. *Insektitsid, akaritsid, biologik faol moddalar va fungitsidlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.* - Toshkent, 2004. - B. 104.

5. Торениязов, Е. Ш., & Бауетдинов, Б. У. (2021). Особенности применения методов защиты озимой пшеницы в экстремальных условиях Республики Каракалпакстан. *Аграрная наука*, (6), 62-64.

6. Торениязов, Е. Ш., & Бауетдинов, Б. У. Нукусский филиал Таш ГАУ. Узбекистан, Каракалпакстан, г. Нукус Х. Абдамбетова б/н. bbauetdinov@mail.ru Ключевые слова: биотоп, биоценоз, сосущие вредителей, тли, трипс биологи. Новости отрасли Вероятность дальнейшего распространения гриппа птиц остается высокой 20.

7. Торениязова, С. Е., & Бауетдинов, Б. У. (2016). РАЗВИТИЕ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ И ИХ ВРЕДИТЕЛИ. In *СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ* (pp. 1799-1801).